
Qo'shtepa tumanida "Yangi yil" bayrami shodiyonalari ko'tarinki ruhda o'tkazilmoqda

Yangi yil ayyomi munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi "Qiyqi" mahallasi hududida joylashgan Madaniyat markazi oldida bezatilgan archa atrofida tashkil etilayotgan bayram shodiyonalari har yilgidan o'zgacha shukuhda davom etmoqda.

Qorbobo va qorqizning chiqishlari, ertak qahramonlari ijrosidagi sahna ko'rinishlari hamda ijro etilayotgan kuy-qo'shiqlar barchaga Yangi yil quvonchini ulashmoqda.

Ayni kunlarda mazkur maydonda turli shoular, konsert dasturlari namoyish etilmoqda. Shu munosabat bilan barchangizni Yangi yil bayrami shodiyonalariga taklif etamiz.

Eslatib o'tamiz bayram dasturlari 2025-yil 5-yanvargacha har kuni soat 16:00 dan 20:00 gacha bo'lib o'tadi.

2024-12-24 08:16:17